

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Samarqand filialining  
2026-yil 13-apreldagi  
87-son buyrug'iga  
15-ilova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filiali tomonidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga  
kiritish uchun korrupsiyaga qarshi qoidalarning (korrupsiyaga qarshi kurashish  
shartlari) mazmuni bo'yicha

### **ASOSIY SHARTLAR**

1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi,

tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni filial xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf filial xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

ishonch telefoni;

Telegram-kanali (Maxsus bot:);

Filialning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta